

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi (keyingi o‘rinlarda — davlat stipendiyasi) respublika davlat oliy ta’lim muassasalarining dastgohli rangtasvir, rangtasvir (turlari bo‘yicha), grafika va miniatyura, haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha), amaliy san’at (turlari bo‘yicha), dizayn (turlari bo‘yicha), san’atshunoslik va muzeeyshunoslik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlarining oxirgi ikki kursida ta’lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalariga tayinlanadi.

2. Davlat stipendiyasi davlat oliy ta’lim muassasalari talabalariga O‘zbekiston Badiiy akademiyasi (keyingi o‘rinlarda — Badiiy akademiya) tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalariga asosan tayinlanadi.

3. Davlat stipendiyasi kvotasi quyidagi ta’lim yo‘nalishlarining har biri bo‘yicha bittadan alohida-alohida taqsimlanadi:

dastgohli rangtasvir;
rangtasvir (turlari bo‘yicha);
grafika va miniatyura;
haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha);
amaliy san’at (turlari bo‘yicha);
dizayn (turlari bo‘yicha);
san’atshunoslik va muzeeyshunoslik (turlari bo‘yicha).

Ushbu ro‘yxatga Vazirlar Mahkamasi tomonidan har o‘quv yili boshida ta’lim yo‘nalishlaridagi ustuvorliklarni o‘zgartirish maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda Badiiy akademiya tavsiyasiga binoan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

4. Davlat stipendiyasini tayinlash ushbu Nizomga **ilovadagi** sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Baholash mezonlari

5. Davlat stipendiyasini tayinlash quyidagi talablar bo‘yicha ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq baholash mezonlariga asoslanadi:

a) dastgohli rangtasvir, rangtasvir (turlari bo‘yicha), grafika va miniatyura, haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha), amaliy san’at (turlari bo‘yicha), dizayn (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlari bo‘yicha:

oliy ta’lim muassasasidagi tahsil davrida viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi shaxsiy ko‘rgazmasini tashkil etganligi;

soha bo'yicha xalqaro va respublika darajasidagi ko'rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi;

o'quv jarayonida mutaxassislik fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirganligi;
o'zbek milliy san'atini targ'ib qilishga qo'shgan hissasi.

b) san'atshunoslik va muzeeyshunoslik (turlari bo'yicha) yo'naliislari bo'yicha:

oliy ta'lim muassasasidagi tahsil davrida respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallarda yakka mualliflikda maqolalar chop etganligi;

soha bo'yicha xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi;

o'quv jarayonida mutaxassislik fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirganligi;
o'zbek milliy san'atini targ'ib qilishga qo'shgan hissasi.

3-bob. Davlat stipendiyasiga talabgorlar haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish

6. Davlat stipendiyasiga talabgorlar dastlabki ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasalarining ilmiy kengashiga quyidagilarni taqdim qiladi:

a) dastgohli rangtasvir, rangtasvir (turlari bo'yicha), grafika va miniatyura, haykaltaroshlik (turlari bo'yicha), amaliy san'at (turlari bo'yicha), dizayn (turlari bo'yicha) yo'naliislari bo'yicha:

viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi shaxsiy ko'rgazmasini tashkil etganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar, diplom nusxalari, shaxsiy ko'rgazma haqidagi fotosuratlar;

soha bo'yicha xalqaro va respublika darajasidagi ko'rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtirokini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar, sertifikatlar nusxalari va erishgan natijalarini ko'rsatuvchi diplomlar nusxalari, tadbirlar fotolari;

turli festivallar, simpoziumlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirokini tasdiqlovchi diplomlar, sertifikatlar nusxalari, ma'lumotnomalar, tadbirlar fotolari;

reyting daftarchasidan yoki talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimidan yuklab olingan ko'chirma;

dekanat, kafedraning tavsiyanomasi;

ijodiy ishlar ro'yxati va ularning bosma nusxalari;

soha bo'yicha kamida ikki nafar yetuk mutaxassisning fikrnomasi;

o'qish davrida erishgan boshqa yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi;

b) san'atshunoslik va muzeeyshunoslik (turlari bo'yicha) yo'naliislari bo'yicha:

respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar nusxalari;

xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va erishgan natijalarini tasdiqlovchi diplom, sertifikatlar nusxalari, ilmiy maqolalari nusxalari;

turli festivallar, simpoziumlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirokini tasdiqlovchi diplomlar, sertifikatlar nusxalari, ma'lumotnomalar, tadbirlar fotolari;

reyting daftarchasidan yoki talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimidan yuklab olingan ko'chirma;

dekanat, kafedraning tavsiyanomasi;

ilmiy ishlar ro'yxati;

soha bo'yicha kamida ikki nafar yetuk mutaxassisning fikrnomasi;

ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlari, sohaga doir ko'rsatuvlardagi ishtirokini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar, ko'rsatuvlar nusxalari, ilmiy va ommabop jurnallar, gazetalarda chop etilgan ilmiy-ommabop, publitsistik maqolalari nusxalari;

o'qish davrida erishgan boshqa yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Barcha hujjatlar yig'majildga joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada talabgor tahsil oladigan oliy ta'lim muassasasining nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, kursi, guruhi ko'rsatiladi.

7. Davlat stipendiyasini tayinlash uchun nomzodlar ko'rsatish talabgorlarning o'quv va ijodiy (ilmiy) faoliyati mazkur Nizomga [2- ilovada](#) keltirilgan baholash mezonlari orqali baholangan holda davlat oliy ta'lim muassasalari ilmiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

8. Ilmiy kengashlar qarori, nomzodlar hamda ularning erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlar bir hafta muddatda oliy ta'lim muassasalarining veb-saytlarida hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

Ilmiy kengashlarning qarorlari tizimida davlat oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning Badiiy akademiyaga davlat stipendiyasini tayinlash to'g'risida tavsiyanomalarni jo'natishi uchun asos bo'ladi.

Badiiy akademiyaga davlat stipendiyasini tayinlash to'g'risida tavsiyanomalar har yili 1 iyulgacha yetkaziladi.

9. Badiiy akademiya davlat stipendiyasini tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqish muddati — har yili 10 — 25 iyul.

10. Badiiy akademiya davlat stipendiyasiga talabgorlar orasidan munosibini tanlab olish maqsadida Badiiy akademiya raisining buyrug'i bilan 9 — 15 nafar a'zodan iborat Ekspert guruhi tuziladi.

Ekspert guruhi tarkibi Badiiy akademianing haqiqiy a'zolari, O'zbekiston xalq rassomlari, xalq ustalari, Badiiy ijodkorlar uyushmasining a'zolari, soha bo'yicha yetuk mutaxassislar va professor-o'qituvchilar hamda Badiiy akademiya xodimlaridan shakllantiriladi.

Nomzodlarni saralash jarayonlarida to'laqonli shaffoflikni ta'minlash hamda kelgusida korrupsiya omillari kelib chiqishining oldini olish maqsadida dastlabki saralashda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy kengashlari tarkibiga

kirgan, shuningdek, nomzod bilan qarindoshlik, ustoz-shogirdlik aloqalari bo‘lgan mutaxassislarining Ekspert guruhi tarkibiga kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. Ekspert guruhining huquq va majburiyatlarini quyidagilardan iborat:

a) Ekspert guruhining huquqlari:

zaruratga ko‘ra tegishli vazirliklar va idoralar hamda oliy ta’lim muassasalarining mutaxassislarini jalg etadi;

vazirliklar va idoralar hamda oliy ta’lim muassasalaridan nomzodlar to‘g‘risida zarur axborotlarni oladi;

o‘z vakolatlari doirasida mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar kiritadi;

b) Ekspert guruhi a’zosi:

Ekspert guruhi ishida qatnashish hamda nomzodlarning hujjatlarini har tomonlama adolatli, shaffof va xolisona ko‘rib chiqishga;

Ekspert guruhi tomonidan qarorlar qabul qilinishida ovoz berishda qatnashishga;

ko‘rib chiqish uchun kiritilayotgan nomzodlar hujjatlari bo‘yicha ushbu Nizom talablari bo‘yicha tegishli xulosalarni o‘z vaqtida taqdim etishga;

ushbu Nizom talablariga rioya qilishga majburdir.

12. Ekspert guruhi talabgorlarning har biri bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqadi.

Ekspert guruhi yig‘ilishi uning a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda o‘tkazilgan hisoblanadi. Mazkur Nizomga **ilovada** keltirilgan baholash mezonlariga ko‘ra har bir yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan talabgor davlat stipendiyasiga tavsiya etiladi.

Ekspert guruhining qarori Badiiy akademiyasi raisining buyrug‘i bilan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiradi.

Ekspert guruhi yig‘ilishida tegishli vazirliklar va idoralarning vakillari kuzatuvchi sifatida taklif etilishi mumkin.

13. Badiiy akademiyasi raisining buyrug‘i davlat oliy ta’lim muassasalarining talabalariga davlat stipendiyasini tayinlash va to‘lash haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirish uchun asos bo‘ladi.

Davlat stipendiyasi 1 sentabrdan boshlab bir o‘quv yili muddatiga belgilangan miqdorga muvofiq tayinlanadi. Stipendiyalarni yangi muddatga qaytdan tayinlash ham aynan shu tartibda amalga oshiriladi. Bunda takroran ishtirok etayotgan nomzodning oldin taqdim etgan hujjatlari inobatga olinmaydi.

14. Davlat stipendiyasiga sazovor bo‘lgan talabalarga Badiiy akademiyasi raisining buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasining sohibi» guvohnomasi beriladi.

Guvohnoma shakli O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Guvohnoma talabalarga Badiiy akademiyasi tomonidan tantanali ravishda topshiriladi.

15. Davlat stipendiyasiga sazovor bo‘lgan talabalar bakalavriat bosqichini tamomlaganidan so‘ng bir yil mobaynida tegishli mutaxassislik bo‘yicha

magistraturaga kirish imtihonlarisiz, grant asosida qabul kvotasidan tashqari qabul qilinadi.

16. Davlat stipendiyasi sohiblari o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng bir yil mobaynida magistraturada o‘qishni davom ettirish uchun xorijga yuborilayotgan yoshlar guruhlari tarkibiga kiritilishida ustunlikka ega bo‘lish huquqini saqlab qoladilar.

17. Talabalarni kundalik darslarni o‘zlashtirmaganlik, o‘quv intizomi va oliy ta’lim muassasalari ichki tartib-qoidalarini buzganlik uchun o‘quv yili mobaynida davlat stipendiyasidan mahrum qilish tizimida davlat oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning taqdimnomalariga binoan Badiiy akademiya Ekspert guruhining qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

18. Davlat stipendiyasi uchun tanlov o‘tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko‘rib chiqish uchun Badiiy akademianing haqiqiy a’zolari, O‘zbekiston xalq rassomlari, xalq ustalari, Badiiy ijodkorlar uyushmasining a’zolari, soha bo‘yicha yetuk mutaxassislar va professor-o‘qituvchilardan kamida 7 kishidan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Badiiy akademiya raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Norozilik (apellyatsiya) arizalari tanlov natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Apellyatsiya komissiyasi a’zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko‘rib chiqishda apellyatsiya komissiyasi nomzodlarning barcha hujjatlarini mazkur Nizomga [ilovada](#) keltirilgan baholash mezonlari asosida har tomonlama o‘rganadi.

Nomzodlarning norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

qo‘yilgan ballarni o‘zgarishsiz qoldiradi;

qo‘yilgan ballarni o‘zgartiradi.

Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatini ko‘rishda uning ilgari olgan ballini pasaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Ekspert guruhi a’zolarining kiritilishi taqiqlanadi.

Ekspert guruhi a’zosi apellyatsiya jarayonida qatnashish va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

19. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

20. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati
1-bosqich	Talabgor	Davlat stipendiyasiga hujjatlarni dastlabki ko‘rib chiqish uchun oliy ta’lim muassasalarining ilmiy kengashiga taqdim etish.	har yili 1 iyunga qadar
2-bosqich	Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy kengashlari	Davlat stipendiyasiga talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish.	har yili 15 iyunga qadar
3-bosqich	Oliy ta’lim muassasalari	1. Ilmiy kengashlar qarori, nomzodlar hamda ularning erishgan yutuqlari haqidagi ma’lumotlarni oliy ta’lim muassasalarining veb-saytlarida e’lon qilish. 2. Ilmiy kengashlarning qarorlariga asosan talabgorlarning hujjatlarini bo‘ysinuvi bo‘yicha tegishli vazirliklar va idoralarga taqdim etish.	har yili 25 iyunga qadar
4-bosqich	Tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar	Badiiy akademiyaga talabgorlarning yig‘ma jiddlari hamda davlat stipendiyasini tayinlash to‘g‘risidagi tavsiyanomalarni jo‘natish.	har yili 1 iyulga qadar
5-bosqich	Badiiy akademiya	1. Talabgorlarning yig‘ma jiddlari hamda davlat stipendiyasini tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni ko‘rib chiqish. 2. Talabgorlarga davlat stipendiyasini tayinlash va to‘lash haqidagi buyruqni qabul qilish hamda tizimida oliy ta’lim	har yili 10 — 25 iyul har yili 10 avgustga qadar

		muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarga yetkazish.	
		3. «Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasining sohibi» guvohnomasini tantanali ravishda topshirish.	har yili 20 avgustga qadar

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash bo‘yicha baholash

MEZONLARI

T/r	Baholash obyekti	Ball
1.	Dastgohli rangtasvir, rangtasvir (turlari bo‘yicha), grafika va miniatyura, haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha), amaliy san’at (turlari bo‘yicha), dizayn (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlari bo‘yicha baholash mezonlari	jamı 100 ball
a)	oliy ta’lim muassasasidagi tahsil davrida viloyat, respublika va xalqaro miqyosidagi shaxsiy ko‘rgazmasini tashkil etganligi: <i>xalqaro miqyosidagi shaxsiy ko‘rgazmasi uchun</i>	25 ballgacha
	<i>respublika miqyosidagi shaxsiy ko‘rgazmasi uchun</i>	<i>12 ballgacha</i>
	<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar miqyosidagi shaxsiy ko‘rgazmasi uchun</i>	<i>8 ballgacha</i>
	<i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar miqyosidagi shaxsiy ko‘rgazmasi uchun</i>	<i>5 ballgacha</i>
b)	soha bo‘yicha xalqaro va respublika darajasidagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi: <i>xalqaro darajadagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdarda sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	35 ballgacha
	<i>xalqaro darajadagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdarda sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	<i>15 ballgacha</i>
	<i>respublika darajasidagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdarda sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	<i>10 ballgacha</i>
	<i>respublika darajasidagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdarda sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	<i>7 ballgacha</i>
	<i>respublika darajasidagi ko‘rgazma, biyennale, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirdarda sovrinli o‘rinni olganligi uchun</i>	<i>3 ballgacha</i>
v)	o‘quv jarayonida mutaxassislik fanlarini a’lo baholarga o‘zlashtirganligi: <i>oxirgi o‘quv yilidagi jami a’lo baholar 95 — 100 foizgacha bo‘lganda</i>	25 ballgacha
	<i>oxirgi o‘quv yilidagi jami a’lo baholar 90 — 95 foizgacha bo‘lganda</i>	<i>12 ballgacha</i>
	<i>oxirgi o‘quv yilidagi jami a’lo baholar 86 — 90 foizgacha bo‘lganda</i>	<i>8 ballgacha</i>
	<i>oxirgi o‘quv yilidagi jami a’lo baholar 86 — 90 foizgacha bo‘lganda</i>	<i>5 ballgacha</i>
g)	O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilishga qo‘sghan hissasi: <i>xorijiy ommaviy axborot vositalaridagi chiqishi uchun</i>	15 ballgacha
	<i>respublika ommaviy axborot vositalaridagi chiqishi uchun</i>	<i>10 ballgacha</i>
	<i>respublika ommaviy axborot vositalaridagi chiqishi uchun</i>	<i>5 ballgacha</i>
2.	San’atshunoslik va muzeyshunoslik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlari bo‘yicha baholash mezonlari	jamı 100 ball

a)	oliy ta'lim muassasasidagi tahlil davrida respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallarda yakka mualliflikdagi maqolalar chop etganligi: <i>xalqaro miqyosdagi ilmiy jurnallardagi maqolalari uchun</i> <i>respublika miqyosidagi ilmiy jurnallardagi maqolalari uchun</i>	25 ballgacha 15 ballgacha 10 ballgacha
b)	soha bo'yicha xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi: <i>xalqaro darajadagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardama'ruza bilan ishtirok etganligi uchun</i> <i>xalqaro darajadagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlarda ishtirok etganligi uchun</i> <i>respublika darajasidagi ko'rgazmalarda kuratorlik qilganligi uchun</i> <i>respublika darajasidagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardama'ruza bilan ishtirok etganligi uchun</i> <i>respublika darajasidagi ilmiy konferensiya, seminar, festival, simpozium, biyennale, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlarda ishtirok etganligi uchun</i>	35 ballgacha 10 ballgacha 9 ballgacha 7 ballgacha 6 ballgacha 3 ballgacha
v)	o'quv jarayonida mutaxassislik fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirganligi: <i>oxirgi o'quv yilidagi jami a'lo baholar 95 — 100 foizgacha bo'lganda</i> <i>oxirgi o'quv yilidagi jami a'lo baholar 90 — 95 foizgacha bo'lganda</i> <i>oxirgi o'quv yilidagi jami a'lo baholar 86 — 90 foizgacha bo'lganda</i>	25 ballgacha 12 ballgacha 8 ballgacha 5 ballgacha
g)	O'zbek milliy san'atini targ'ib qilishga qo'shgan hissasi: <i>xorijiy ommaviy axborot vositalaridagi chiqishi uchun</i> <i>respublika ommaviy axborot vositalaridagi chiqishi uchun</i>	15 ballgacha 10 ballgacha 5 ballgacha

Izoh. Har bir mezon bo'yicha qo'yilgan talablarning nufuzi, soni, sifati va mazmunidan kelib chiqqan holda ball miqdorlari belgilanadi.